

JAHON ADABIYOTIDA “SHUM BOLA”LAR OBRAZINING BADIY PSIXOLOGIZMI**Eraliyeva Sarvinoz Oybek qizi**

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi

17-umumiy o'rta ta'lim maktabining

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda G'afur G'ulomning “Shum bola” asari bosh qahramoni Qoravoy obraziga o'xshash, estetik jihatdan yaqin bo'lgan jahon adabiyoti namunalari uchraydigan bola obrazlari tahlil etiladi, qiyoslanadi. Yanguli, “Oq kema”dagi bola, Varka obrazlari badiiy psixologizmdagi o'xshashliklar va farqli jihatlar Qoravoyga nisbatan ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Obraz, badiiy psixologizm, “Shum bola”, Qoravoy, Nodar Dumbadze, “Hellados”, Anton Chexov, “Uyqu istagi”, “Oq kema”, bola, jamiyat.

Biz bilgan Qoravoyning jahon adabiyotida egiz inilari kam emas. Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasidagi bolakay, Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasidagi Yanguli, Chexovning “Uyqu istagi” asarida Varka kabi bosh qahramonlar ruhiyatidagi o'xshashliklarni bir qarashda payqash mumkin. Bu asarlardagi barcha bolalar o'zi mansub jamiyatga qandaydir begona hamda qadrsiz, atrofidagi “odam”larning “yodidan chiqib qolgan” kichkina jussali, ammo ulkan yurakli kattalardir. Ularni chorasizlik, turmush chigalliklari toliqtirgan, ammo umidvorlik, erkka tashnalik bir nuqtaga birlashtirgan.

“Qora-qurum bosgan sassiq takyaxonadan tashqariga chiqib, ko'kragimni to'ldirib nafas oldim. Endi men pok-pokiza, qushday yengil, ko'nglim tongday tiniq. To'rt tomonim qibla. Lekin qayoqqa qarab yo'l olsam ekan?”, -- “Shum bola” qissasini yakunlovchi ushbu parchada Qoravoyga xos yosh bo'lishiga qaramasdan oqni qoradan ajrata olish, jamiyatda “norma”ga aylanib ulgirgan hissizlik, loqaydlik va g'arazliklarga nisbatan ichki g'alayon hamda illatlarga qarshi pokiza qalbi bilan tura olish kabi jihatlarni Yanguli, Varka hamda “Oq kema”dagi bola obrazlarida ham ko'ra olamiz. Bu bolalar ruhi “qushday yengil”, ko'ngli “tongday tiniq”, yagona orzusi aldov-u xiyonat, zulm, tubanliklar iskanjasidan holi bo'lgan havodan “ko'krak to'ldirib nafas olish” bo'lgan bolalardir. Ular yo'l o'rtasida tentirab, “Qayoqqa qarab yo'l olsam ekan?” deb o'zini so'roqqa tutgan va javob topolmay, alaloqibat, ikkiga bo'linib ketgan, yo jisman, yoxud qalban nobud bo'lgan go'daklardir. Ular o'zgalar xudbinligidan aziyat chekkan, “men”i toptalgan norasidalaridir.

“...Nogahon mast holda soqollarigacha loy va tuproqqa belanib, ayanchli holda yotgan cholning yuziga ko'zi tushib seskanib ketdi. Bola shu daqiqada haligina O'rozqul bolta bilan maydalab tashlagan oq bug'uning kallasini xayolidan o'tkazdi va qo'rquvdan o'zini chetga tortdi. Bobosidan nari etar ekan, dedi:

--Men baliqqa aylanaman, eshityapsizmi, bobo, suzib ketyapman”.

“Oq kema”dagi bola va Yangulining ayanchli taqdirida ko'plab o'xshashliklar mavjud. Yoshlaridagi ozroq tafovutni inobatga olmasa, ikkisi ham pokiza tuyg'ularni tushunmaydigan kimsalar qilmishlaridan diqqinapas bo'lgan, yuragidagi ezgu hislar sababgina tirik yurgan bolalardir. Ular ko'p yillardan buyon ishonib kelgan odamidani ko'ngli sovigan, o'sha aziz

insonini tuban qiyofada ko'rib ezilgan hamda orzu-umidlari chilparchin bo'lib, tutqun ruhini qutqarmoq uchun joniga qasd qilishdan o'zga chora topolmaydi. Ular bir umr e'tiqod bilan suyangan haqiqatlarining tortib olinishini hazm qilolmay, g'uborsiz yuragini ba'zilar ko'nikkan "me'yoriy yangi qadriyatlar" dan o'zi ozod etishga jahd qilgan ilojsizlardir.

"Onam yo'q, hatto eslolmayman ham. Otam uzukkun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... men ko'chada, Venetsion ko'chasida katta bo'ldim... Mening vatanim, mening Elladam bu-- Suxumi, ko'cha, Chalbash, bu-- Ko'ka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz, ko'prik... U bir yutinib olib, davom etdi. Bu--Mida, qolaversa, sen..." Yanguli uchun eng muqaddas tushuncha bu ona yurt va vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, shu sabab u barcha yurtodoshlarini yaxshi ko'radi. "Oq kema"dagi bolaning idealida esa shoxdor ona bug'u timsolida ezgulik, oq kema misolida erk bor va shuning uchun bolakay artofidagi barchadan hayr kutadi. Ammo jamiyatning zulmkor va jabrdiyda kimsalardan iborat ekanligini idrok eta olgan bu bolalar ikkala toifadagi odamlardan ham uzoqlashishni, aslida hayotda butunlay boshqacha, adolatli yashash kerak ekanligini his qiladi. Bu esa asar qahramonlarining katta bo'lish, ulg'ayish ostonasiga yetganini anglatadi. Endi ularning oldida faqat bitta yo'l qolgan: baliqqa aylanib suzib ketish. Ikkisi ham o'zini suvga otadi va uzoqlarga suzib ketgisi, o'zi mansub hayotda ortiq yashay olmasligini tushunib, baridan xalos bo'lgisi keladi. Yangulining hikoya so'ngida jisman nobud bo'lganini bilamiz, biroq "Oq kema"dagi bolada biroz mavhumlik bor. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori M. Sheraliyeva bu xususda shunday fikr beradi: "Sohilda qolgan bola uchun ikki yo'l bor: yo Mo'min chol, yo O'rozqul bo'lib yashash. Bunday tanlovni ko'tarolmagan bola qalbi baliqqa aylanib oq kema tomon suzib ketadi. Sohilda qolgan bolaning bir qismi esa mana shu ikki yo'ldan boshqasini ko'rolmaydi".

Yuqorida biz tahlilga tortgan badiiy asarlarning bosh qahramonlari o'zini nobud qilish orqali qalbini qutqarib qolishni istagan bo'lsa, "Uyqu istagi"dagi Varka ismli qizaloq boshqa bironing joniga qasd qilish orqali o'zini qutqarishga qaror qiladi. Hikoyadagi obrazlar "ezuvchi va eziluvchi" arxetipi nuqtayi nazaridan qaralsa, asar boshidanoq Varka o'zini va o'ziga o'xshagan eziluvchilarni mahkumlik iskanjasiga uloqtirgan hammani tushunmagani va ularning qilmishlarini tahlil etib, baholashga kirishgani, pirovardida ichki olamida yetilib kelayotgan g'alayon hammasidan qutilishga, bariga chek qo'yishga undaganini kuzatamiz. Varkaning nohaqliklar girdobida qanchalar og'ir ahvolga tushib qolganiga guvoh bo'lamiz: "Qiz polda o'tirib kalishlarni artgan, shu katta va chuqur kalishga boshini solib bir dam mizg'ish haqida o'y surdi..." Varka chaqaloqni emas, aslida uni asir etgan zulmatni, ayrim kishilarni g'ayriinsoniy amallar qilishga o'rgatib va buni tabiiy hol deb baholashga majbur etgan, kattalar hayotida ommaviy tus olib ulgurgan loqaydlik, xudbinlik, hissizlikni o'ldiradi: "...va go'dak qarshisiga egildi. Uni bo'g'di va quvonchdan xursand bo'lib tezda polga cho'zildi, endi bemalol uxlashi mumkin, bir daqiqadan so'ng u o'likday qotib yotardi".

Tahlilga yo'naltirilgan asarlarda yana bir umumiy jihat shuki, qissa va hikoyalardagi ayrim qahramonlarda bolalar qabul qila olmaydigan, musulmonchilikka yot bo'lgan ichkilik va boshqa mast qiluvchi vositalarga ruju qo'yish holati bor. "Shum bola" va "Uyqu istagi"da ichkilik yoxud islom dini rad etgan boshqa narsalar kundalik turmush tarzining bir bo'lafi bo'lib tasvirlansa, bu detallarning "Oq kema" va "Hellados" ga kiritilishi ba'zi kishilarning alamzadalikdan chiqish, o'zi yashashni istamagan hayotga ko'niktirish vositasi sifatida tasavvur berishga yo'naltirilgan. Yoshi ayni o'smirlik pallasiga to'g'ri kelgan bizning qahramonlarimiz (Qoravoy 14, Varka 13, Yanguli 14 va eng kichigi "Oq kema"dagi bola 7 yosh) bunday kimsalarning noto'g'ri turmush kechirayotganini allaqachon tushungan, yuragi qabul qilmagan bunday ilojsizlikdan uzoqlashishni istagan obrazlardir.

Adabiyotshunos Dilmurod Quronov “Shum bola” qissasi xususida shunday fikr yuritadi: “Qissadagi hayot tasviridan ortiq bu tarzda yashab bo’lmaydi, jamiyat isloh qilinishi kerak degan xulosa kelib chiqadi”. Haqiqatan ham o’zbek badiiyatida uchrovchi barcha qoravoylar va jahon adabiyotidagi shum bolalar o’nglanishi shart bo’lgan jamiyatga yoki ba’zi kimsalarga isyon ko’tarib maydonga chiqadi. Bu qarshilik kuchsiz tuyilishi mumkin hamda badiiy asar so’nggi yashilik bilan tugamaydi, bosh qahramonlar murod-maqsadiga yetib, baxtli hayot kechirmaydi. Biroq bu bolakaylar nohaqliklarni idrok eta oldi, ularga qarshi o’z holicha kurashdi, muhimi o’zini namoyon etdi, hayotda bekorga yashamadilar, o’zi uchun muqaddas haqiqatlarni kashf etdi va ularning toptalishiga jim qarab turolmadi. Mana shuning o’zi kitobxonda o’zgacha taassurot uyg’otib, ruhiyatiga ajib yorug’lik olib kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati (references)

1. G’. G’ulom. Shum bola.-Yangi asr avlodi, 2015.
2. N. Dumbadze. Hellados. library.navoiy-uni.uz.
3. A. Chexov. Uyqu istagi, hikoya. Kichik xonimning katta o’ylari,-O’qituvchi, 2020.
4. Ch. Aytmatov. Oq kema.-O’qituvchi, 2017.
5. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug’ati.-Akademnashr, 2010.
6. D. Quronov. Kulgi zimnidagi jiddiyat, maqola. Mutoala va idrok mashqlari,-Akademnashr, 2013.
7. Sheraliyeva. Mo’minlik ham qadriyat. www.ziyouz.uz